

QO‘QON XONLIGI DIPLOMATIYASIDA ELCHILIK MAROSIMLARINING TARIXIY VA SIYOSIY O‘RNI

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.013>

Abdurahmonov Zuhridin Holdorali o‘g‘li

Mustaqil izlanuvchi, Namangan Impuls tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Telefon: +998 93 200 52 95, E-mail: abdurahmonovzuhridin9495@gmail.com

Annotatsiya Mazkur tezisdagi Qo‘qon xonligida shakllangan elchilik marosimlarining tarixiy ildizlari, siyosiy ahamiyati va diplomatik etiketga asoslangan tartib-qoidalari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, elchilarning kutib olinishi, mehmondorchilik tartibi, sovg‘a-salom marosimlari, elchilar bilan muloqot protokollari kabi jihatlar xonlik tashqi siyosatining boy an‘anaviy asoslari sifatida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, elchilik, diplomatik etiket, mehmondorchilik, tashqi siyosat, marosim, siyosiy protokol.

Kirish

XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar murakkablashib borar ekan, tashqi siyosat yuritishda elchilik instituti muhim vosita sifatida shakllandi. Ayniqsa Qo‘qon xonligi o‘zining an‘anaviy-diniy asoslari, islomiy protokollari va sharqona mehmondorchilikka tayanib, o‘ziga xos diplomatik tizimni shakllantirdi. Elchilik marosimlari nafaqat tashqi siyosiy aloqa vositasi, balki davlat obro‘cini ifodalovchi muhim ijtimoiy-siyosiy hodisa bo‘lgan.

Asosiy qism

Elchilik marosimlarining shakllanishi va asosiy bosqichlari

Qo‘qon xonligida elchilik marosimlari qat‘iy tartib asosida tashkil etilgan. Elchilarni kutib olish, ularni mehmonxonaga joylashtirish, xizmatkor va qorovul ajratish, ularni xon huzuriga olib borish – bularning barchasi diplomatik protokol doirasida amalga oshirilgan. F. Nazarov o‘z esdaliklarida shunday yozadi: “Qo‘qon xoni tashrif buyurgan elchilarni hurmat bilan kutib olar, ular uchun alohida qarorgoh va ovqat tayyorlatar edi” [Raxmonqulova, 2022: 34]. Saroy protokolida “Salomxona” deb ataluvchi joy mavjud bo‘lib, bu xon huzuriga quolsiz kirish uchun maxsus ajratilgan makon bo‘lgan. Bu joy – diplomatik protokolning muqaddas bosqichi sifatida qaralgan.

Sovg‘a-salom marosimi va siyosiy ma‘no

Elchilik marosimlarining eng asosiy bosqichlaridan biri – bu sovg‘a-salom topshirish marosimi bo‘lib, bu ham siyosiy, ham ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon

xonlari odatda mehmon elchilarga Qur'oni karim, sharqona gilamlar, to'qimachilik buyumlari, zargarlik mahsulotlari, otlar kabi hashamatli sovg'alarni tayyorlatgan.

Xuddi shunday, Rossiya imperiyasidan kelgan elchilar uchun ham maxsus qabul marosimlari tashkil etilgan. Tursunxo'ja Naizaxo'jin boshchiligidagi elchilarning Peterburgga yo'llanishi bu boradagi muhim tarixiy dalildir [Topildiev, 2021: 93].

Elchilarning xon huzuridagi muloqot protokoli

Elchilar xon huzurida nutq so'zlashdan oldin e'tiqod va axloqiy tozalikni ifodalovchi muomala tartibiga amal qilgan. Ularning nutqlari qisqa, lo'nda va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Ular xonga murojaatda "fayzli davlat sohibi", "rahmat va adolat manbai" kabi yuksak iboralarni ishlatganlar. Muhammad Yunusjonning "Tarixi Aliquli amirlashkar" asarida shunday yoziladi: "Elchi kiritilgach, ikki tomonlama ta'zim qilindi, so'ngra elchi sovg'alarni topshirdi va xon hazratlariga karvonlar yo'lining xavfsizligi haqida so'z yuritdi" [Yunusjon, 2015: 19].

Marosimlar orqali diplomatik ta'sir

Elchilik marosimlari orqali Qo'qon xonligi o'zining tashqi siyosiy maqomini, davlat madaniyatini, diniy axloqiy qadriyatlarini namoyon qilgan. Ayniqsa, boshqa davlat elchilari bilan aloqalarda bu marosimlar elchi elchi emas – balki xalq va davlatning yuzi sifatida qaralgani sababli yuksak darajada o'tkazilgan. Mannonov qayd etadi: "Xiva, Buxoro yoki Rossiya elchilari Qo'qonga kelgach, ularning har bir qadami protokol asosida kuzatilgan. Xon huzurida esa ular uchun alohida mehmondorchilik marosimi o'tkazilgan" [Mannonov, 2004: 78].

Xulosa

Qo'qon xonligi diplomatiyasida elchilik marosimlari siyosiy, diniy va madaniy jihatdan alohida o'rin egallagan. Bu marosimlar nafaqat diplomatik aloqa shakli, balki davlat siyosatining ijtimoiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan. Elchilarning xon huzuriga kirishidan tortib sovg'a-salom topshirishigacha bo'lgan har bir qadami xonlik tashqi siyosatidagi izchil va mukammal protokolni aks ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmonqulova Z. *Qo'qon-Rossiya elchilik aloqalari*. – "Tarixchi" jurnali. – 2022. – №1. – B. 33–35.
2. Topildiev N. *Qo'qon xonligi diplomatiyasi*. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 92–96.
3. Muhammad Yunusjon. *Tarixi Aliquli amirlashkar*. – Qo'qon: 1870 (nashr: 2015). – B. 19.
4. Mannonov B. *Xiva xonligi tashqi siyosati*. – "Sharq yulduzi" jurnali. – 2004. – №2. – B. 77–79.